



## „O'TKAN KUNLAR“ ROMANI VA SHARQONA RUH

**Mexribonova Sitora Azamat qizi**

*TDTU “Muhandislik texnologilari” fakulteti “Biotexnologiya” yo’nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk adibimiz, o’zbek ramanchilik matabining asoschisi Abdulla Qodiriyning „O’tkan kunlar“ romani, undagi o’zbek milliy urf odatlari, qadryatlari, oila madaniyati, hurmat-ehtirom tushunchalari kabilar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Ma’naviy-axloqiy, nash’u namo, xon zamonlari, sarbozlar, yatimxonalar, muvofiquttab.

**Kirish:** XX asr yangi o’zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, o’zbek romanchiligining asoschisi va XX asrning 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi Abdullar Qodiri 1884-yilning 10-oktabrida Toshkent shahrida bog’bon oilasida dunyoga kelgan. Otasi Qodirbobo (1820–1924) xon, beklar qo’lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865) Toshkent mudofaasida qatnashgan. Otasi boshidan o’tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan, tarixiy romanlarining yuzaga kelishida muhim rol o’ynagan. 1920-yillar boshida Abdulla Qodiri birinchi o’zbek romani bo’lmish „O’tkan kunlar“ ni yozadi.

Abdulla Qodiri yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan va arab, fors, rus tillarini puxta o’rgangan. 1920-yillar boshida Abdulla Qodiri birinchi o’zbek romani bo’lmish „O’tkan kunlar“ni yozadi. 1922-yili ilk bor „Inqilob“ jurnalida chop etilib, 1926-yilda esa alohida kitob holida chiqadi. O’sha davrda Qodiriyning „O’tkan kunlar“ romanini o’qish uchun navbat kutib turganlarning sanog’i bo’lmas, hatto bu romanni yod olgan kitobxonlar ham bo’lgan. Adibning ulug’vor adabiy merosi haligacha kitobxonlar qalbidan joy olmoqda. Qodiriyning o’zbek adabiyotida tutgan o’rni haqida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev shunday deydi: „...Bitta narsani hammamiz bilishimiz kerak. Adabiyotsiz iqtisodiyot ham, ma’naviyat ham bo’lmaydi. O’zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning „O’tkan kunlar“ ini bir emas, bir necha marta o’qigan bo’ladi. Nimaga desangiz, uni o’qigan odam hech qachon oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo’lsa Vatanga xiyonat qilmaydi“.

Boshqa yirik epik asarlardagi kabi „O’tkan kunlar“ da ham hikoyanavislikning ko’p planliligi, ikkilamchi syujetlar mavjudligi, ketma-ket avj oluvchi va fojiali yakun topuvchi voqealar bilan to’qnashamiz. Ilg’or fikrlarni olg’a suruvchi Otabek obrazi romanning g’oyaviy va kompozitsion markazi hisoblanadi. U ochiqcha savdodagi



eskirgan iqtisodiy munosabatlarga qarshi chiqib, oila va turmush muammolariga yangi qarashga amal qilardi.

Ayniqsa, roman boshida Otabek, Hasanali, Rahmat va Homidlarning „uylanish“ masalasidagi suhbatlariga e'tibor qaratsak, Otabek naqadar keng dunyoqarash va teran mushohadaga ega ekanligini yaqqol kuzatishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida bosh qahramonning barcha musulmon xalqlari singari ayol zotiga cheksiz hurmati, uning sha'ni, qadr-qimmati har narsadan ustun ekanligini teran anglagan er yigit sifatida ko'rish mumkin:

*„-Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi.*

*— Uylangach, xotining tab'ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.*

*Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.*

*— So'zingizning to'g'riling'ida shubha yo'q, — dedi,— ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladirg'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquqtib bo'lsin.*

*— Xoting'a muvofiq bo'lismoshni uncha keragi yo'q, — dedi Homid e'tirozlanib, — xotinlarga «er» degan ismnинг o'zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas. Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko'z qirini tashladi...“*

Ushbu fikrlarning o'zidanoq Otabek misoldida chinakam o'zbek yigitlarining qon-qoniga singib ketgan oriyat, g'urur, vafo, ayolga ehtirom kabi milliy xarakterni, milliy ruhni yaqqol anglash mumkin. Ayniqsa, Otabekning Rahmatga aytgan ushbu gapi hozirgi o'sib kelayotgan yoshlارimiz uchun ham chinakam ibrat maktabini o'tay oladi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi:

*„....ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladirg'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquqtib bo'lsin...“*

Yozuvchining „O'tkan kunlar“ romani orqali o'zbek xalqi, uning orzu-armonlari, dardi va xarakterini yaratishda ekan, uning mahorati, ayniqsa, Yusufbek hoji xarakterini yaratishda namoyon bo'ladi. Yozuvchi bu qahramoni orqali oilada haqiqiy oila boshlig'i, aqli ota qanday bo'lishi kerakligini zukko kitobxonga bir necha o'rirlarda uning o'zbekona xarakteri orqali orqali ta'kidlab, izohlab o'tadi:

*„....Yusufbek hojining qiziq bir tabi'ati bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'Iturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'zig'a tikiltirib o'Iturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa «xo'b» deydir, gapka tushunmagan bo'lsa «xo'sh» deydir, noma'qul bo'lsa «durust emas» deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan*



kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytса ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe‘liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko‘pincha bir og‘iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to‘g‘rida so‘zlashmakchi bo‘lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir. O‘zbek oyim yuqoridag‘i o‘zining itob va xitobiga eridan bir iljayib qo‘yish javobini olib dami ichiga tushadilar..“ Bu fikrlardan shuni tushunish mumkinki, ya‘ni oila ustuni bo‘lmish ota yoki er har qanday vaziyatda ham bosiqlik, vazminlik bilan ish tutmog‘i, muammolarni ortiqcha xatti-harakat va janjallarsiz hal qilmog‘i joizdir. Bunday faylasufona xarakter va fikrlar romanning boshidan oxiriga qadar uchraydi va qahramonlarning chinakam sharqona ruhini, e’tiqodini, dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash joizki, Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari XX asrning 20-yillardagi yangi o‘zbek adabiyoti oldida turgan murakkab g‘oyaviy-badiiy muammolarning yechimiga asos bo‘ldi, adabiy taraqqiyotning tezlanishiga xizmat etdi. Keyinroq o‘zbek adabiyotining atoqli vakillari qatoriga ko‘tarilgan Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor Abdulla Qodiriyl ijodining katta ta’siri ostida yetuk yozuvchi bo‘lib yetishdilar. Abdulla Qodiriyl ijodining milliy adabiyotlarga ta’sirini tojik, turkman, qozoq va qirg‘iz adabiyotining Sadriddin Ayniy, M. Avezov, X. Deryayev, Chingiz Aytmamatov singari yirik vakillari ham qayta-qayta qayd etishgan. Nemis adabiyotshunoslari N.Tun, I. Badrauf, amerikalik tadqiqotchilar E. Olvort, Xristofor Murfi, asli eronlik amerika olimi Eden Nabi Abdulla Qodiriyl ijodi bo‘yicha jiddiy ishlar qilganlar. Abdulla Qodiriyl ijodidagi chuqur mazmunni jozibador va ravshan shaklda ifoda eta olish, hayotdan yirik va salmoqli voqealarni tasvir uchun tanlay olish, so‘zning ma’noga mosligi va yorqinligi, hammadan ham muhimi – kishilar xarakteridagi muhim xususiyatlarni ko‘ra olish va tasvir eta bilish yosh avlod uchun doimo ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriyl. “O’tgan kunlar” // Nashriyot “SHARQ” NMAK. 2018.
2. Zarif Bashar. “O‘zbek adabiyoti” // 1929.
3. Boymirza Hayit. “Turkiston yangi adabiyotida ikki siymo: Qodiriyl va Cho’lpon” // Nashriyot: “Milliy turkiston” majmuasi // 1964- y. May.